



MUVOFIQLIKNI BAHOLASH ORGANLARINI AKKREDITATSIYA QILISH

Raxmonov F.A

Jizzax Politehnika institute +905660664 rahmonovfurqat67@gmail.com.

Annotasiya: *Mahsulot, jarayon, xizmat ko'rsatish masalalarida iste'molchilar va davlat huquqlarini himoya qilish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish har bir mamlakat iqtisodiyoti rivojining ustuvor vazifalaridan.*

Kalit so'zlar: *Mahsulot, jarayon, akkreditatsiya qilish hamkorligi, "IAF- MLA, Milliy akkreditatsiya, muvofiqlik, loyiha, xolislik, manfaatlar.*

Аннотасия: *Защита прав потребителей и государства в вопросах продукции, производственных процессов и услуг, повышение качества и конкурентоспособности продукции, а также устранение технических барьеров в торговле входят в число приоритетных задач экономического развития каждой страны.*

Ключевые слова: *продукт, процесс, партнерство в области аккредитации, «IAF-MLA», национальная аккредитация, соответствие требованиям, проект, беспристрастность, интересы.*

So'nggi yillarda xalqaro doirada muvofiqlikni baholash sohasining takomillashtirilishi natijasida ekspertlar tomonidan sifat milliy infratuzilmasini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda akkreditatsiya faoliyatining alohida qonuniy asosi bo'lmog'i va u bosqichma-boqich rivojlantirilib borilishi muhim hisoblanadi. Mahsulot, jarayon, xizmat ko'rsatish masalalarida iste'molchilar va davlat huquqlarini himoya qilish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish har bir mamlakat iqtisodiyoti rivojining ustuvor vazifalaridan. Rivojlangan davlatlar aynan akkreditatsiya tizimini xalqaro talablarga moslashtirish mexanizmidan foydalanganliklari uchun bu kabi masalalarni yuqori samaradorlik bilan hal eta olganlar. Xalqaro tajribaning so'nggi besh yillik tahlillariga nazar solsak, muvofiqlikni baholash va muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish sohasida 15 dan ortiq yangi xalqaro standartlar qabul qilingan. Ushbu standartlarda muvofiqlikni baholash va akkreditatsiya jarayonida betaraflik, xolislikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik masallariga alohida urg'u berilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bu borada holat qanday? Avvalo sohani tartibga soluvchi qonuniy asosga nazar soladigan bo'lsak bunda faqatgina 1993-yilda qabul qilingan "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi va 2013- yildagi "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunlarni ko'rishimiz mumkin. Bu o'z-o'zidan ushbu qonun hujjatlari bugungi kun talablariga qanchalik javob beradi, degan savol tug'dirishi tabiiy. Ushbu qonunlarda akkreditatsiya jarayonlarida betaraflik va xolislik



ta'minlanishining qonuniy asoslari yo'q. Sohadagi manfaatdor idoralarning vazifalari va vakolatlari to'liq ochib berilmaganligi hamda akkreditatsiya organi vakolatlari cheklab qo'yilganligi sababli akkreditatsiya natijalari xalqaro darajada tan olinishiga imkon yaratilmagan.

Bu muhim masalani hal etish, shuningdek, respublikamiz milliy akkreditatsiya tizimi xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjat amaldagi xalqaro talablar, jumladan, Yevropa ittifoqi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining tajribalari asosida yaratilgan. Unda xalqaro amaliyotda qabul qilingan akkreditatsiyaga doir masalalar yoritilgan. Jumladan, hujjatda muvofiqlikni baholash organlarini (MBO) akkreditatsiya qilish sohasidagi munosabatlar xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda tartibga solinishi belgilab qo'yilmoqda. Ya'ni, muvofiqlikni baholash faoliyatini amalga oshirishning majburiy yoki ixtiyoriy xususiyatidan qat'i nazar, muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishning asosiy yo'nalish va talablari belgilab berilgan, shuningdek, manfaatdor tomonlarning akkreditatsiya qilingan sub'ektlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Qonun loyihasini ishlab chiqishda akkreditatsiya bo'yicha Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorligi (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya forumi (IAF) talablari, shuningdek, muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazuvchi tashkilotlarga talablarni belgilovchi ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablari inobatga olingan.

Yangi ishlab chiqilgan qonun loyihasida akkreditatsiya sohasini davlat tomonidan tartibga solishning vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda akkreditatsiya sohasidagi vakolatli davlat organi vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimi tarkibi, akkreditatsiyaning tan olinishi va transchegaraviy akkreditatsiya masalalari, shuningdek, akkreditatsiya organini tashkil etish, akkreditatsiya uchun ariza beruvchi va akkreditatsiya qilingan sub'ektning huquqlari hamda majburiyatlari aniq belgilab berilgan.

Qonun loyihasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi natijasida:

– mavjud akkreditatsiya faoliyatini takomillashtirish va xalqaro standartlar talablariga uyg'unlashtirish orqali akkreditatsiya organiga qonuniy tus berilib, uning xolisligi va betarafligini ta'minlash bilan bir qatorda, akkreditatsiya natijalari xalqaro maydonda e'tirof etilishiga;

– akkreditatsiya organining Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorligi (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya forumi (IAF) faoliyatida to'la huquqli a'zosi sifatida ishtirok etishi, mazkur xalqaro tashkilotlarning "ILAC-MRA" va "IAF-MLA" qo'p tomonlama akkreditatsiya natijalarini tan olish bitimlariga qo'shilishiga;

– respublikada faoliyat yuritayotgan va akkreditatsiyadan o'tgan muvofiqlikni baholash organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijalari (muvofiqlik



sertifikatlari, sinov va kalibrlash bayonnomalari) xorijiy davlatlarda tan olinishiga zamin yaratiladi.

Bu esa, o'z navbatida, mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik to'siqlarni bartaraf etgan holda, respublika eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorida o'z o'rnini topishiga imkoniyat yaratadi.«Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida»gi qonun (O'RQ-820, 27.02.2023-y.) O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolandi.Qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi akkreditatsiya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi akkreditatsiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.Milliy akkreditatsiya tizimi muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalarini va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabr "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-sonli Qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyun "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 397-sonli Qarori.

3.Madjidova Sh.G.,Ulkanbayeva G.D. "Tikuv-trikotaj buyumlari texnologiyasi". O'quv qo'llanma. T.: TTESI, 2018. – 146 b.

4.Maksudov S.S. Charm buyumlar texnologiyasi, 1-2 jild, T.: TTESI, 2004. – 231 p

5.Ostrovskaya A.V., Abdullin I.SH. Ximiya i texnologiya koji i mexa. Uchebnoye posobiye, Kazan. gos. texnol. un-t. Kazan, 2006. - 139 s.